



**Международная
конференция
МИРОВАЯ НАУКА
- ПРОБЛЕМЫ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
РАЗВИТИЯ**

Волгоград - 2022



**Волгоградский государственный
социально-педагогический университет**



УДК 004.02:004.5:004.9
ББК 73+65.9+60.5
М63

Редакционная коллегия:

Доктор экономических наук, профессор Ю.В. Федорова
Доктор филологических наук, профессор А.А. Зарайский
Доктор социологических наук, доцент Т.В. Смирнова

М63 **МИРОВАЯ НАУКА. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ:**
материалы V международной научно-практической конференции (24-25
ноября 2022 г., Волгоград) Отв. ред. Морозов С.А. – Издательство ЦПМ
«Академия просвещения», Волгоград 2022. – 306 с.

978-5-907385-53-5

Сборник содержит научные статьи и тезисы ученых Российской Федерации и других стран. Излагается теория, методология и практика научных исследований в области информационных технологий, экономики, образования, социологии.

Для специалистов в сфере управления, научных работников, преподавателей, аспирантов, студентов вузов и всех лиц, интересующихся рассматриваемыми проблемами.

Материалы сборника размещаются в научной электронной библиотеке с постатейной разметкой на основании договора № 1412-11/2013К от 14.11.2022.

ISBN 978-5-907385-53-5

УДК 004.02:004.5:004.9
ББК 73+65.9+60.5

© Волгоградский государственный социально-педагогический университет, 2022
© Richland College (Волгоград, Россия), 2022

Sobirov Sarvar Tursunmurotovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at"
kafedrasida katta o'qituvchisi
ssobirov337@gmail.com

ERTAK HAQIDA TUSHUNCHA, UNING BADIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI AKS ETTIRISHDA ILLYUSTRATSIYANING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada ertakning paydo bo'lishi va ertak deb nima aytilishi, ertakning paydo bo'lishi haqida fikr-mulohazalar, ertaklardagi majoziylik, ertakdagi voqeyliklar ma'lum tarixiy faktlarga asoslanishi, har bir xalqning ertagi o'sha xalq tarixini, ma'naviy-madaniy turmush tarzini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o'rganishda muhim manba ekanligi va ertak kitoblarining tarkibiy qismlari, illyustratsiyaning o'rni yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ertak, afsonalar, *an'anaviy urf-odatlar*, *mifologik dunyoqarash*, *fantastik*, *ijtimoiy-estetik*, *majoziylik*, *sehrli ertaklar*, *ommaviyligi* va *yashovchanligini*, *illyustratsiya*.

Sobirov Sarvar Tursunmuratovich
Chirchik State Pedagogical University "Fine Arts"
senior teacher of the department
ssobirov337@gmail.com

THE ROLE OF ILLUSTRATION IN REFLECTING THE UNDERSTANDING OF A FAIRY TALE, ITS ART AND ITS CHARACTERISTICS

Abstract: The article describes the emergence of a fairy tale and what is called a fairy tale, opinions about the emergence of a fairy tale, figurativeness in fairy tales, facts in fairy tales are based on certain historical facts, the fairy tale of each nation reflects the history of that nation, spiritual that it is an important source in studying the cultural lifestyle, customs, climate and natural conditions of the place of residence, and the components of fairy-tale books, the role of illustration is highlighted.

Keywords: fairy tales, legends, traditional customs, mythological outlook, fantastic, socio-aesthetic, figurative, magical tales, popularity and viability, illustration.

Ertaklarning paydo bo‘lishida qadimiy urf-odat, marosimlar va afsonalar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ertaklarning mustaqil janr sifatida qaror topishi olam haqidagi ibtidoiy tushunchalar xayoliy shaklda ifodalangan davrlardan boshlangan. Chunki bu davrlarda aniq voqea va hodisalar, urug‘ va qabilalar turmushi bilan bog‘liq miflar(afsonalar), an‘anaviy urf-odatlar o‘z kuchi va maishiy vazifasini yo‘qotib, kishilar ongida g‘aroyib narsa bo‘lib anglashila boshlagan edi. Ertak motivlarining dastlabki namunalari ta’limiy-didaktik xarakterda bo‘lib, keyinchalik ijtimoiy maishiy mohiyat kasb etgan. Hayot haqiqati bilan bog‘liq bo‘lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g‘oya tashuvchi og‘zaki hikoyalar ertak deyiladi.¹

Ertaklarning-paydo bo‘lishi haqida ba’zi bir mulohazalar. Ertak xalq og‘zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo‘lgan janrdir. Ular juda uzoq o‘tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo‘lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu-o‘ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar

¹ Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \ O‘zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.

vositasida bayon etiladi. Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini kechirgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan. Asta-sekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omuxtalashtira borish, u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi. Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo'la boshladi. Shu zaylda ertaklar ijtimoiy-estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topadi. Ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xos qurilishi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ba'zi ertaklar "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh (yoki cho'pon) bo'lgan ekan", "Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot" kabi qisqagina boshlamalar bilan boshlansa, ba'zi boshlamalar ancha uzun bo'ladi.

Aksariyat ertaklarda an'anaviy tarzda ertak qahramonlari yor izlab o'zga olamga, o'zga makon va yurtlarga safar qiladilar. Epik qahramon muayyan shartni bajarish, ma'lum yetishmovchilikni bartaraf etish, tushida ko'rgan yoki xabarini eshitgan parini izlab topish maqsadida safarga chiqqanida ko'pincha o'z yorini o'zga yurtdan topadi. Bu motivning muayyan tarixiy asoslari mavjud. Professor X.Egamovning yozishicha, "ertaklarda eng ko'p tasvirlangan nikoh formalaridan biri ekzogamiya bo'lib hisoblanadi. Ona urug'i davrida urug' a'zolari bir-biri bilan qarindosh hisoblanib, urug' ichida o'zaro uylanishga ruxsat etilmagan. Ularning xotin-qizlari boshqa urug' erkaklari bilan nikohdan o'tganlar... Ekzogamiyaning ta'siri tufayli bo'lsa kerak, xalq og'zaki ijodi, jumladan ertaklarda qahramon ko'pincha urug'dan tashqaridan, uzoqroq yurtdan yor izlab

ketadi. Tushida ko‘rgan yoki rasmini ko‘rgan, birovdan eshitgan qizni qidirib, safarga otlanadi.

Ertakning o‘ziga xos xususiyati voqeabandlik, biror voqeani mukammal hikoya qilish tarzida ko‘zga tashlanadi. Ertaklar voqelikni hayotiy va xayoliy uydirmalar vositasida kishilarda badiiy zavq uyg‘otadigan shaklda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Ertaklarning xarakterli xususiyati shundaki, ularda fantaziyaga keng o‘rin beriladi, mubolag‘a illyustratsiya kabi tasviriy vositalardan foydalaniladi. E‘tibor bersangiz, ertaklarda ijobiy qahramon albatta yovuzlik, adolatsizlik, zulm ustidan g‘alaba qozonadi, yaxshilik tantana qiladi. Chunki ertak qahramonlari xalq orzu-umidlarini, manfaatini ifodalaydilar. Ertak uchun ham xalq og‘zaki ijodiga xos barcha sifatlar: og‘zakilik, jamoaviylik, an‘anaviylik, anonimlik, versiya va variantlilik xosdir.

Har bir xalqning ertagi o‘sha xalq tarixini, ma‘naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e‘tiqodini boshqa qardosh el-u elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urf-odatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Ertaklar o‘z janriy tabiatiga xos badiiy-kompozitsion qurilishga ega. Ular bir xil badiiy shakliy qoliplar doirasida yaratiladi va ijro etiladi. Kirish, boshlama, tugun, epik sarguzasht va tugallama ertak kompozitsion qurilmasining asosini tashkil etadi. Ertaklarning an‘anaviy kirish bilan boshlanishi jahondagi barcha xalqlar ertakchiligi uchun mushtarak xususiyat hisoblanadi. An‘anaviy kirishning vazifasi tinglovchilar e‘tiborini bir nuqtaga jalb etish, ertak tinglashga hozirlashdir.

Sehrli ertaklar boshlamalarida aksaran qahramonlar nomi sir saqlanadi, laqabigina izohlanadi: “Uch og‘ayni bor ekan. To‘ng‘ichining oti - Yulduz sanar, o‘rtanchasining oti - Daryo bog‘lar, kenjasining oti - Qilich qora ekan”. Sehrli - fantastik ertaklarda esa tugun xayoliy uydirmalar shaklida namoyon bo‘ladi. Bu tipdagi tugun ertakda xayoliy fon yaratadi. Sehrli-fantastik ertaklardagi tugun mazmun-mohiyatiga ko‘ra ikki yo‘nalishga ega: Birinchisi - oilaviy shart-sharoit

bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Bunda o'gaylik motivi hal qiluvchi rol o'ynaydi: “Yoriltosh”, “Opa-uka”, “Opa-singil”, “Oltin beshik”, “Shokir va Shakar”, “Zumrad bilan Qimmat” ertaklari tuguni shunday xarakterga ega. Chunonchi, “Zumrad bilan Qimmat” ertagi tuguniga e'tibor qilaylik: “Bir kuni kampir Zumradni yomonlab cholg'a do'q uribdi. Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor, bo'lmasa, sen bilan bir nafas ham birga turmayman”. Ikkinchisi - sirli yoki dahshatli ko'ringan tabiat kuchlari bilan bog'liq holda tugun yuzaga keladi. Satirik va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham tugun hayotiy - real bo'ladi va tanqidiy vazifani ado etadi. Chunonchi, satirik ertakda: “Podshoning o'g'li ko'ngli tusagan narsani qilib, aqlsiz o'sibdi”.

Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo'lib xizmat qiladi, bu uning badiiy qiymati, hissiy ta'sir darajasi, undan o'quvchining estetik tarbiyasi jarayonida foydalanish imkoniyatini aniqlaydi. Rasm bolalarning bilimlarini oshirish, axloqiy qadriyatlar, estetik g'oyalarni rivojlantirish va badiiy asarlarni idrokini chuqurlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobni illyustratsiyasiga qarab tanlaydilar. Bundan tashqari illyustratsiyalar bolalar tomonidan ertak va badiiy asar matnini o'zlashtirishga, ertak va badiiy asarning mavzusi, g'oyasi, obrazlari haqida tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni ertak va badiiy kitoblarni o'qish uchun qiziqtiruvchi va rag'batlantiruvchi omil bu illyustratsiyalardir. Tasviriy san'atning o'ziga xos turi sifatida kitob illyustratsiyasi dunyoni hissiy idrokini shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, bolada estetik sezgirlikni rivojlantiradi.²

Illyustratsiya – kuchli ta'sir vositasidir. U badiiy asarni ham boyitishi ham qashshoqlashtirishi mumkin. Bu illyustratorning mahoratidan balki, bayon

² Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. “Modern Traditions of Working with Illustrations to Fiction (Based on Educational Cluster)”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. <http://ijmmu.comeditor@ijmmu.com> ISSN. 2364-5369. Volume 9, Issue 6 June, 2022.

qilingan tafsilotlarga munosabati, voqealarning qay darajada o'zlashtirgani va uning dunyoqarashiga bog'liq. Demak, chiroyli bezakning yechimini grafik rassomning mahoratigina emas, balki uning asarni o'qib qay darajada tushunganligi ham hal qiladi. Illyustratsiyalarda har doim rassomning syujetga, qahramonlarga, ularning taqdiri va xarakatlariga individual munosabati aks etadi.³

Ertak kitoblari - bayon qismi va shu bayon asosida chizilgan illyustratsiyalardan iborat bo'ladi. Ertak kitobining bayonida - sujet voqealarining rivojini ta'minlovchi asosiy ziddiyatlar aytilsa, illyustratsiyada aytilgan fikrlarning tasviri ishlanadi. Ertaklarning oxirida tugallama keladi, ular ertakning yakuniy qismini ta'riflaydi va hamisha optimistik ruhdagi intiho sifatida xalqning yengilmas ruhi va qudratini namoyish etadi. Qadimgi zamonlardan og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan ertaklar zamonning o'zgarishi natijasida ro'y bergan yangiliklarni ham o'ziga singdirib boradi. Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning ta'kidlashlaricha, dunyodagi hamma xalqlarda keng tarqalgan janr ertakdir. Sehrli ertaklarning yaratilishida umumiy o'xshashlik yana ham kuchliroq seziladi. Ertaklarning bu turi qadimdan yaratilganligidan, turli xalqlar maishiy hayotida o'xshashliklarning ko'pligidan darak beradi. Ammo bu degan so'z ertaklarda milliylik aks etmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki ertaklar mavzuidagi qahramonlar ismlarida, muammolarida, maishiy masalalarning ifodasida, tabiat tasvirida, voqealar bayonida, kasb - hunarlar ta'rifida milliy til, milliy ruh alohida aks etadi va bularning barchasi illyustratsiyalarda o'z aksini topishi kerak. Xalq ertaklarining ommaviyligi va yashovchanligini ham asosan ularning ana shu xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

³ Sobirov S.T. "IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 98-101]

1. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B .R. “Maktabgacha ta’lim muassasalarda applikasiya mashg‘ulotlari”. T., 2014.
2. O‘zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. – T.: O‘qituvchi, 2013.
3. Sulaymanov A. , Abdullayev N. “Tasviriy san’at”. 7-sinf uchun darslik-2006y.
4. Imomov K. O‘zbek xalq ertaklari \ O‘zbek folklorining epik janrlari. –T.: Fan, 1981. –B.62-69.
5. Gurovich L. M. “Bola va kitob” bolalar bog'chasi o‘qituvchisi uchun kitob.
Moskva: Prosveshchenie, 2002.
6. Sobirov S.T. “Importance of illustrations for perception of content of the book”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 98-101
7. Sobirov S.T. “Some factors that impede the development of students' creative abilities in fine art classes”. Asian Journal of Research № 1-3, 2020, ISSN 2433-202x. 2020 yil. 214-218
8. Sobirov S.T. “Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda grafik rassomlar hayoti va ijodiy faoliyatini organishning muhimligi”. ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР 2-махсус сон. ISSN 2181-9513. 2020 yil. 459-464 b.
9. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. “Developing Students’ Imagination Through Illustration and Illustrations in Fine Arts Classes”. International Journal of Social Science Research and Review. <http://ijssrr.com> editor@ijssrr.com Volume 5, Issue 6 June, 2022.
10. Sarvar Tursunmurotovich Sobirov. “Modern Traditions of Working with Illustrations to Fiction (Based on Educational Cluster)”. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com ISSN. 2364-5369. Volume 9, Issue 6 June, 2022.

ОГЛАВЛЕНИЕ

Петрова А.Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА СОКРАТА В ПРОЦЕССЕ АУДИТОРНОГО ОБУЧЕНИЯ	3
Кутушев А.А. МОБИЛЬНАЯ УСТАНОВКА ВОДООЧИСТКИ ДЛЯ СИСТЕМ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ	8
Лепёхина Т.В. РЕЗУЛЬТАТЫ СКРЕЩИВАНИЯ ЧЕРНО-ПЕСТРОГО СКОТА С ГОЛШТИНСКИМИ БЫКАМИ В МОСКОВСКОЙ ОБЛАСТИ	16
Магомедова Э.С. ПОВЫШЕНИЕ ГРАЖДАНСКОГО УЧАСТИЯ ПОСРЕДСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ	20
Позницкая Е.В. ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ВИДЕО КОНФЕРЕНЦ-СВЯЗИ И ВЕБ-КОНФЕРЕНЦИИ В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ	24
Садуов А.Ж., Муканов Б.О. ВЛИЯНИЕ ПАНДЕМИИ COVID-19 НА ТРАНСПОРТНУЮ СИСТЕМУ КАЗАХСТАНА	38
Салиев А.Р. АНАЛИЗ ЭТИОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ ДЛЯ ОЦЕНКИ РИСКА ВОЗНИКНОВЕНИЯ	42
Скворцова И.В. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ТЕМПЕРАТУРЫ ПРОКАЛИВАНИЯ НА КИНЕТИКУ РАСТВОРЕНИЯ $\text{Cr}(\text{OH})_3$ В СЕРНОЙ КИСЛОТЕ	52
Сорокина О.Г. ПЛАНИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА	57
Фадеев А. В., Кокуев А.Г. ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАБОТЫ УСТАНОВКИ У271	63
Сейтов А.Ж., Абдуллаев Ш.А., Эшметова С.Д., Бозорова Ё.Х. МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ НЕУСТАНОВИВШЕГОСЯ ТЕЧЕНИЯ ВОДЫ В КРУПНЫХ МАГИСТРАЛЬНЫХ КАНАЛАХ С КАСКАДАМИ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ	66
Orishov A.N. USE NEW METHODS IN TEACHING INFORMATICS	81
Рўзимова Х.К. ШАҲАР МУҲИТИ ЭКОЛОГИЯСИНИ ЎРГАНИШДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ	89
Turaeva G.G. OROL DENGIZI QURISHINING O`RTA OSIYO MAMLAKATLARIGA TA`SIRI	96
Ахмедова М.Х. ПРОБЛЕМЫ РЕЧЕВОЙ СИТУАЦИИ И СИТУАТИВНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	105
Калинина О.Н. О РОЛИ УЧЕБНЫХ ТЕКСТОВ В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ	112
Prenov B. B., Nurmakhanov K. E. DIFFERENT TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING ELECTRONIC EDUCATIONAL ENVIRONMENT	117

Djumayeva G. S. TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARNING O'RNI	123
Sobirov S. T. ERTAK HAQIDA TUSHUNCHA, UNING BADIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI AKS ETTIRISHDA ILLYUSTRATSIYANING O'RNI	129
Дониёрова Л. Х. «ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА У УЧАЩИХСЯ»	136
Абдужалилова Ш.А., Абдужаллилова Н.А. АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ТАЪЛИМОТИДА “ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ” ТУШУНЧАСИ	144
Maxkamova M.U. INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI FANINING «UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FAN VA O'QUV PREDMETI SIFATIDA O'QITILISHI»	151
Xusanova N.A., Gulbayev N.A. “TA'LIMDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI” FANIDA NAZARIY VA AMALIY BILIMLAR UYG'UNLIGI	161
Xudoyberdiyeva Yu.X. USE OF ADVANCED NEW INNOVATIVE STANDARDS IN TEACHING PHYSICS	167
Xurramov A.X. «INTERFAOL TA'LIM METODLARI ASOSIDA INFORMATIKA DARSLARINI LOYIHALASH VA REJALASHTIRISH AMALIYOTI»	177
Садирбекова А. С. ҰЛЫ ЖҮЗДІҢ ТӨБЕ БИ	182
Akhmedov B.A., Xaitboyev Q.O. METHODOLOGY OF TEACHING INFORMATICS IN HIGHER EDUCATION	190
Berdiyev Sh.X. FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI	200
Даулетиярова Н.К. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ	205
Atokova I.L. HUQUQSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA INNOVATION METODLARDAN FOYDALANISH	212
Berdiyev Sh. Kh. NEW APPROACH OF TEACHING PHYSICS IN PEDAGOGICAL UNIVERSITIES	219
Abdusoliyev A.I., Kushakova M.N. DAVLAT ULUSHI ISHTIROKIDAGI JAMIYATLARDA MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI TUZISH TARTIBI	228
Xodjayev A.M. INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI FAN VA O'QUV PREDMETI SIFATIDA O'QITILISHI	237
Boboqulov A.M. MAMLAKATIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI	246

Султанов Т.М., Сайдалиева Л.М. ЧТО ГОВОРЯТ ПСИХОЛОГОВ О УЧЕНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА НА УРОКАХ ГЕОМЕТРИИ	252
Tojiboeva G. DEVELOPMENT OF MANAGERIAL COMPETENCE OF A PRIMARY EDUCATION TEACHER	258
Kobilov A. INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL ECONOMY	262
Isroilov A.A. STEM DUNYO VA O'ZBEKISTON: QAYERDAN BOSHLASH KERAK?	268
Бекбергенова Г.С. ЭТАПЫ ВЫРАЖЕНИЯ В ФОРМЕ НАГЛЯДНОЙ ТЕКСТОВОЙ ОБУЧАЕМОЙ ИНФОРМАЦИИ	273
Абдулхаликова Н.Р. ВАЖНЕЙШАЯ ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОГО ЕСТЕСТВОЗНАНИЯ	278
Каюмов О.А. STATE OF TEACHING, PROBLEMS AND WAYS TO SOLVE THEM THROUGH INTERACTIVE INTELLECTUAL ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	285
Сейтова З. ПРОБЛЕМА РАЗЛИЧНЫХ ФОРМ ДИСКРИМИНАЦИИ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ	296